

SHAXS VA MA’LUMOT XAVFSIZLIGI

*IIV Surxondaryo akademik litsey o’qituvchisi
Mardayev Nurmurod Gulmurodovich*

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi kunda hayotimizni internetsiz tasavvur qilish juda qiyin. Aksariyat insonlar ko‘p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazib, dunyoda sodir bo‘layotgan yangiliklardan xabardor bo‘lish va qiziqarli voqeа-hodisalarni bir-biriga uzatishga intilishadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz va dunyo miqyosida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, voqeа-hodisalar, yangiliklar bilan bog‘liq ma’lumotlar barcha ijtimoiy tarmoqlarda aylanmoqda. Bunday imkoniyatlarning ochilishi yaxshi, albatta, lekin g‘arazli niyatdagi kimsalar zararli dasturlardan foydalaniб yoki internet foy-dalanuvchilarining ishonchiga kirib, doimo ularning xato qi—lishlari payida bo‘lishadi. Yo‘l qo‘ygan birgina xatoyingiz tufayli qimmatli vaqtingizni, kuchingizni sarflab topgan mablag‘ingiz bir zumda havoga uchadi.

Kiberjinoyatchilar tomonidan qo‘llaniladigan tahdidlar—ning turlari foydalanilayotgan ijtimoiy tarmoq platformasiga ham bog‘liqdir. Misol uchun, «Facebook», «Instagram» ijtimoiy tarmoqlari yoki «Telegram» messenjeri o‘z foydalanuvchilari uchun shaxsiy ma’lumotlarini sir saqlashni kafolatlagan. Shuning uchun jinoyatchilar odatda tahdid qilmoqchi bo‘lgan foydalanuv—chining internetdagi do‘stlari bilan yaqinlashishni maqsad qiladi. Agar tajovuzkor tahdid qilishni rejalashtirayotgan foydalanuvchining bir nechta do‘stlarini aniqlasa, u holda, umumiy do‘stlar soniga qarab, jabrlanuvchi jinoyatchining do‘stlik so‘rovini qabul qilish ehtimoli paydo bo‘ladi.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtida veb-saytlar va mobil ilovalar orqali ishlaydigan, biz—nes va bandlikka yo‘naltirilgan onlayn xizmatlarni ko‘rsatuvchi «LinkedIn» platformasidan foydalanayotgan shaxs ish izlash uchun o‘z rezyumelerini va ish beruvchi ish joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni joylashtirishi lozim bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning ma’lumotlarini boshqalarning ham o‘qishiga imkon beradi.

Misol uchun: Toshkent shahrida yashovchi S.A. (ayol) ismli shaxs o‘zining bank kartasidan 50 mln so‘m pul mablag‘larini noma’lum shaxslar o‘zlashtirib olganligini ma’lum qilgan. Aniqlanishicha, ushbu jinoyatni qoraqalpog‘istonlik U.N. ismli shaxs «Telegram» messenjerida tadbirdor Ali—sher Usmonovning videotasvirini o‘zgartirib, moddiy yordam berilayotganligi to‘g‘risidagi soxta havolani jo‘natish orqali sodir etgan.

Qashaqadaryo viloyatida yashovchi J.R. ismli shaxs o‘ziga tegishli bo‘lgan bank kartasidan 20 mln so‘m pul mablag‘larini no‘malum shaxs—lar o‘zlashtirib olganligini ma’lum qilgan. O‘tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida ushbu jinoyatni Toshkent shahrida yashovchi J.R. ismli shaxs «Telegram» messenjeri orqali o‘zining treyderlik faoliyati bilan shug‘ullanishini aytib, pullarini birja orqali oz fursatlarda ko‘paytirib berishni va’da qilib, aldov yo‘li orqali sodir etgan.

Aksariyat kibertovlamachilik holatlari ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma’lumotlarni omma—viy ravishda oshkor qilish orqali amalga oshiriladi. Shu bois ijtimoiy tarmoqlardagi tahdidlardan himoyalanish uchun quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

o'zingizning shaxsiy, boshqalar ko'rsa uyaladigan suratingizni yoki boshqa ma'lumotni yaqin insoningizga, hatto yaxshi ko'rgan kishingiz (qiz yoki yigit)ga yubormang; notanish internet foyda-lanuvchilari bilan aloqa o'rnatmang; umumiyl «Wi-fi» ulanish nuqtalaridan iloji boricha kamroq foydalaning; har qanday ma'lumotni onlayn almashishdan oldin to'xtang va o'ylab ko'ring (Kim mening shaxsiy ma'lumotlarimni so'rayapti? Qanday ma'lumot so'rayapti? Nega ularga ma'lumot kerak?); ijtimoiy tarmoqlar orqali shubhali havolalar kelsa, aslo ularga kirmang.

Agar siz ana shunday kibirhujum domiga tushib jabrlanuvchi bol'sangiz bunda sizni qonun himoyachilari qutqara olmaydi sabab siz o'zingiz o'z qo'lingiz bilan bergen barcha ma'lumotlar evaziga ushbu muammo hosil bol'gan. Demak hozirgi kunda ushbu "gadget"larimizni ya'nikim foydalanayotgan dasturlarimizdan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishimiz va axborotdan foydalanish madaniyatiga e'tibor berishimiz zarur.

Ijtimoiy tarmoqlardan biri bo'lmish "Instagram" ishlash algoritmiga ko'ra relesdag'i media kontentlarini ketma-ketligi shu mavzu va unga zid mavzular bilan bog'langan aylanma mahsulotini qabul qilamiz. Bundan kelib chiqadiki foydalaувчи sekinlik bilan unga tobelik darajasiga yetadi.

Yana bir masala bizni ish rejimimizda o'ziga xos o'r'in tutadigan mobil qurilmalardan foydalanishda uning eng kerakli paytda quvvatsiz holati ham bizga muammo keltiradi. Quvvatsizlik darajasi bu ijtimoiy tarmoqlardan eng ko'p quvvat talab qilinish Facebookda kuzatilgan.

biz foydalanayotgan mobil qurilmada saqlanadigan shaxsiy ma'lumotlarni ijtimoiy tarmoq dasturi orqali olish mumkinligini Instagram misolida o'quv kursida ko'rsatib o'tilgan edi.

Shunday ekan mobil qurilmalarimizdag'i dasturlarga mobil sozlanmalarida keltirilgan imkoniyatlar orqali uning ishlash vaqtlarini sozlashimiz va qo'llashimiz kerak, aks holda eng qimmatli vaqtingiz, tibbiy xolatingiz va ruhiyatingizning mustahkamligiga zarar yetadi.

Gap shaxs va ma'lumot xavsizligi to'g'risida borar ekan axborot urushi davrida o'zingizni shaxsiy ma'lumotlaringizni saqlanishini nazorat qilish aynan biometric parametrlarga ko'ra yaratgan kontentlaringizni tarqatishdan tiyiling, aks xolda profillaringizga qo'yilgan rasmingiz, ovoz fayllaringizni hozirgi kunda maxsus dasturlar yordamida yaratilgan sun'iy nusxangiz orqali sizni nomingizdan ish ko'rishi juda kata salbiy oqibatlarga olib keladi.

Xulosa o'rnida yagona so'zim shuki axborot madaniyatini shakllantiring. O'zingizni asrang.

Nimaga bolalar uchun ikkinchi tilni o'rganish osonroq ?

Raxmanova Zarifa Xamdamovna

Xorazm viloyati Tuproqqa'l'a tumani

8-sod umumiyl o'rtta ta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarga ikkinchi tilni o'rgatishni osonligi va uning sabablari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Bolalar, ikkinchi til, qobilyat, ta'lim, o'rganish, daraja, nutq, rivojlanish, jamiyat.

Zamonaviy dunyoda bir qator tadqiqotchilarning fikricha, bolalarning ikki tilliligi sayyoramizdagи bolalarning deyarli yarmini qamrab oladi va bu tendentsiya o'sishda davom etad.i Haqiqiy muloqot sharoitida ikki tilli bolalar ikki tilni assimilyatsiya qilish jarayonida spontan nutq rivojlanishi bilan ajralib turadi. Agar o'z fikrlarini ifoda etish va boshqalarning nutqini ikki tilda tushunish qobiliyati ularning jamiyatdagi o'rni va roliga ta"sir qilsa, nutqni rivojlantirish darajasi ikki tilli bolaning o'z-o'zini anglashiga muqarrar ravishda ta'sir qiladi. Ikki tillilikni rivojlantirish jarayoni bolaning erta bolalikdan kattalar bilan muloqotda oladigan nutq taassurotlarining xilma-xilligi, chuqurligi va to'g'rilinga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, fan oldida bolalar aralash kommunikativ muhitda bir-biriga bog'liq bo'limgan ikkita tilni o'zlashtirganda nutqni rivojlantirish jarayonining xususiyatlarini o'rganish vazifasi turibdi. Shu bilan birga, ikki tillilikning har tomonlama rivojlanishini belgilovchi omillarni ajratib ko'rsatish muhimdir.

Bola ikki tilni o'rgana olishi uchun unga sharoit yaratib bermoq lozim. Bu sharoit ikki tilning bola hayotidagi hajmini balanslashtirish darajasiga bog'liq bo'ladi. Buning uchun bola uxmlamaydigan vaqtini sanab uni ikkiga bo'lamiz. Bitta yarmini o'zbek tiliga ajratib, ikkinchi yarmini esa chet tili uchun ajratamiz. Bunday hol bola hayotining birinchi uch yilida alohida e'tiborda bo'lishi lozim. Agar bola vaqtি bir til tomoniga og'ib ketsa, ikkinchi til bilan muloqotda bo'lish uchun vaqt topa bilish lozim. Ya'ni agar bola kuni bilan faqat o'zbek tiliga gaplashsa, u holda uni ko'chaga, parklarga olib chiqib chet el bolalari bilan gaplashtiring, yoki chet tilidagi to'garak, bog'chalariga olib boring, yoki chet tilidagi multfilm, kitoblarni ko'rsatib bering. Iloji boricha qarindosh, do'stlaringizni bolangiz bilan o'zbek tilida gaplashishga undang. Bola nafaqat ota-onas bilan, balki boshqalar bilan ham o'zbek tilida gaplashish mumkin ekanligini his eta bilsin.

Qachon bolaga ikki tilda gapishtishni o'rgatish mumkin? Albatta eng yaxshi payt-bu muomalaga kiradigan payti. Ya'ni 2-3 oyligidan boshlab. Lekin bu ikki til bola hayotida iloji boricha teng bo'lishi kerak. Aks holda bir til asosiy, ikkinchisi qo'shimcha til bo'lib qoladi.

Bolalarga ikkinchi tilni o'rganish va ularga til o'rganish uchun qulayliklar yaratish bizning ularga beradigan eng katta tuhfalarimizdan biridir. Hozirgi kunda bir nechta tilni bilish nafaqat ishda, balki ijtimoiy, aqliy va madaniy jihatdan ham ko'p eshiklarni ochadi. Yoshlikdan til o'rganish bolalarni o'z tengqurlari orasida ajralib turishiga imkon beradi va shu bilan birgalikda, ulardagi ijodkorlikni, tanqidiy fikrlashni va muammolarni hal qila olish imkoniyatini taqdim etadi.

Ammo bu jarayonni kichkintoylar uchun qanday qilib yoqimli va sodda qilishimiz mumkin? Quyida bolalarga ko'ngilochar usullar yordamida til o'rganishga yordam beradigan 5 usul haqida so'zlaymiz:

1. O'rganilishi maqsad qilingan tilda musiqa tinglash. Chet tilini o'rganish davomida o'rganilayotgan tilda musiqa tinglash o'sha tildagi talaffuzni yaxshilaydi va shu bilan birgalikda, ulardagi yaratuvchanlikni, o'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi va xotirani mustahkamlaydi. Bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish uchun bunday qo'shiqlarni Songs online for kids saytidan topishingiz mumkin. Bu yerda ularga til o'rganishga yordam beradigan asosiy narsa — ular eshitayotgan qo'shiqlarini ekranda qiziqarli va rangli taglavhalar orqali o'qib, yodlashlari ham mumkinligidir. Bundan tashqari, Facebookdagi LAE Kids sahifasida

bolalarga bilim olishlari uchun yordam beradigan ko'plab musiqiy videolar joylashtirib boriladi.

2. O'rganilayotgan til ona tilisi bo'lgan va o'sha tilda gaplashadigan enagani yollang. Ko'pgina yoshlar, odatda talabalar, chet elga sayohat qilib, boshqa mamlakat madaniyatini, ikkinchi tilni o'rganish uchun yoki qo'shimcha pul topish uchun boshqa mamlakatlarda ishlashadi va bu ularga til o'rganish uchun qulay va juda yaxshi muhitdir. O'zingizning ona tilingizda gapplashmaydigan yosh, kuchga to'la va quvnoq odamni enaga sifatida yollash bu — sizning bolalaringizni istirohat bog'iga borayotganda, o'yin o'ynayotganda, mакtabdan qaytib kelayotganda yoki enaga bilan ovqat pishirayotganda til o'rganish uchun ajoyib imkoniyatdir.

3. Multfilm tomosha qilish. Chet tilini o'rganish uchun multfilmlarni tomosha qilish juda samarali usuldir. Hatto, bolalarga chet tilini o'rganishda yordam berish uchun mo'ljallangan ba'zi multfilmlar ham mavjud. Ushbu turdag'i shoularda bolalarni televizor oldida shunchaki o'tkazib qo'yish o'rniغا, multfilmlar orqali bolani suhbat jarayoniga olib kirish tavsiya etiladi. Ushbu g'oya interaktiv o'quv multfilmlarida uchraydi va bu bolalarning tinglash va talaffuz qilish ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. Siz bunday televizion ko'rsatuvlarni Netflix saytidan topishingiz mumkin. Unda bolalar uchun ko'plab teledasturlar mavjud va bu sizga taglavhalar qo'shish va tillarni almashtirish imkoniyatini beradi.

4. Bolalar uchun mo'ljallangan dasturlar. Hozirda kichik yoshdagi bolalar ham iPadni kattalardan ko'ra ko'proq mahorat bilan ishlata oladi. Xo'sh, nima uchun uni ta'lim maqsadlarida ishlatmaslik kerak? Qurilmaga til ko'nikmalarini oshirishga yordam beradigan dasturni yuklab oling. Quyidagi havola orqali siz farzandingizga til o'rganishi uchun yordam beradigan ko'plab dasturlarni topishingiz mumkin:

5. Sinfxonialarda o'yinli darslardan foydalanib, til o'rganishni va ularning tilga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash. Til maktablari nihoyatda samarali ekanligining ham o'z sabablari bor: agar bolangiz ikkinchi tilni o'rganishini xohlasangiz, ularni o'yin orqali til o'rgatiladigan darslarga jalb qiling. Shunda farzandingiz yana shu yerga qaytib kelishni va darsni intqlik bilan kutadi, bundan kelib chiqadiki, ular ham til o'rganishga xohish bildira boshlashadi. Bunday usulda bolalarga til o'rgatish ko'p yillar davomida sinalgan va juda samarali usul hisoblanadi.

Ikki tilni o'rganish uslublaridan yana biri bu TIL VAQTI uslubidir, bunda bola bilan ayrim soat yoki kunlarda bir tilda gaplashilib, boshqa ajratilgan vaqtida esa boshqa tilda gaplashiladi.

Quyidagi holatlarda bolaga ikki tilni o'rgatish tavsiya etilmaydi.

1. Agar bolada logopedik muammolar bo'lsa, ya'ni 3 yoshga kelib to'liq, ravon so'zlashma olmasa, gapirmoqchi bo'lgan gapini, xohishini so'z bilan izxor eta olmasa.

2. Bola jismonan baqquvat emas, ko'p kasal bo'lsa.

3. Agar o'zingizda bola bilan ikki tilda muloqot qilish uchun iroda yetarli bo'lmasa. Bolaga ikki tilni o'rgatishda ota-onaning roli katta.

4. Bolaga ikki tilni qaysi uslub bilan o'rgatasiz, bolaga psixologik stress keltirmaslik uchun ikki tilni o'rgatish zaruriyati bo'lishi shart.

Bolada ikki tillik muammosi ayniqsa aralash oilada, ya'ni ota-onasi turli til egalari bo'lgan oilalarda ko'p uchraydi. Chunki bunday oiladagi ota ham, ona ham o'z ona tilini

farzandiga o'rgatishni va keyingi avlodga o'tishini xohlaydi. Lekin hozirgi kunda ota-onasi bir til egalari bo'lgan oilalar ham farzandida ikki tilni rivojlantirishni xohlaydilar, va u bilan ikki tilda muloqot qiladilar. Ota-onaning biri farzandi bilan ona tilida gapirsa, ikkinchisi chet tilida muloqot qiladi. Bunday bolalar ota-onasiga har xil tilda murojaat qiladilar. Bu yaxshimi yomon-mi ota-onaning bunga bo'lgan munosabatiga va e'tiboriga bog'liq. Agar bolada ikki tilni rivojlantirmoqchi bo'lsangiz, bunga alohida yondashuv kerakligini unutmang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avrorin V.A. Ikki tillilik va maktab // Ikki tillilik va ko''p tillilik muammolari. M., 1972 yil. 49-62-betlar.
2. Vaynrayx U. Bir tillilik va ko,,p tillilik. Tilshunoslikda yangilik. - Nashr. 6. Til aloqalari. - M., 1972. - C. 25-60.
3. Vereshchagin G.M. Ikki tillilik (ikki tillilik)ning psixologik va uslubiy xususiyatlari. - M.: Moskva davlat universiteti nashriyoti, 1969. -160 b.
4. Nodira, T., Shoxista, M., Gulnoza, P., Yoqutkhon, K., & Mohinur, D. (2022). Exploring the development of creative thinking in small school students. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE), 14(02), 5701-5707.
5. Yuldasheva, M. B., Toshboltaeva, N., Pulatova, G. M., Mamajonova, S. K., & Karimjanova, Y. U. (2021). Semantic Analysis of Feeling Loneliness among Students. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 14552-14558.